O‘ZBEK ADABIYOTIDA MILLIY QADRIYATLAR VA MA’NAVIY TARBIYA UYG‘UNLIGI

Qayumova Gulasal Abduraufovna
ShDPI Filologiya fakulteti
Til va adabiyot kafedra o'qituvchisi
O`zbekiston, Qashqadaryo
Tel:+998911657335
gulasalqayumova12@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotida milliy qadriyatlarning badiiy talqini, ularning ma’naviy tarbiya jarayonidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Adabiyot orqali yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, insonparvarlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy adabiyotda qadriyatlar bilan ma’naviy tarbiyaning uyg‘unlashuvi masalasiga ham e’tibor qaratiladi.*

Kalit so`zlar: *O‘zbek adabiyoti, milliy qadriyat, ma’naviyat, tarbiya, badiiy obraz, milliy o‘zlik, an’ana, ma’rifat.*

Аннотация: *В статье анализируется художественная интерпретация национальных ценностей в узбекской литературе, их роль и значение в процессе духовного воспитания. Рассматриваются пути формирования национального самосознания, патриотизма, гуманизма, толерантности у подрастающего поколения посредством литературы. Также уделяется внимание вопросу сочетания ценностей и духовного воспитания в современной литературе*

Ключевые слова: *Узбекская литература, национальные ценности, духовность, образование, художественный образ, национальная идентичность, традиция, просвещение.*

Annotation: *This article analyzes the artistic interpretation of national values in Uzbek literature, their role and significance in the process of spiritual education. The ways of forming national identity, patriotism, humanity, tolerance in the younger generation through literature are considered. Attention is also paid to the issue of combining values and spiritual education in modern literature*

Key words: *Uzbek literature, national values, spirituality, education, artistic image, national identity, tradition, enlightenment.*

Adabiyot — xalqning ma’naviy qiyofasini, ruhiy olamini, qadriyatlarini aks ettiruvchi bebaho xazina. O‘zbek adabiyoti ham asrlar davomida xalqning orzu-umidlarini, e’tiqodini, axloqiy qarashlarini o‘zida mujassamlashtirib keladi. Milliy

qadriyatlar orqali insonni komillikka yetaklash, uni halollik, sadoqat, mehr-oqibat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash adabiyotning asosiy vazifalaridan biridir.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan o'zbek adabiyotining barcha davr namunalari — xalq og'zaki ijodidan tortib zamonaviy yozuvchilar asarlarigacha — bu masalada beqiyos o'ringa ega. Hozirgi rivojlangan jamiyatimizda, "yaxshi" va "yomon" inson tushunchalari nisbiy deb qarash g`oyasi ilgarilab bormoqda. Albatta, bu g`oya haqiqatdek ko`rinsa-da, aslini olganda yaxshi va yomon odamlar har bir zamonda mavjud bo`lgan. Nafaqat badiiy adabiyotimizda, balki butun dunyo xalqlari adabiyotida ham shu kungacha salbiy va ijobiy qahramon tushunchasi mavjud. Agarda biz yuqorida aytgan tushunchalar nisbiy bo`lganda edi, "Yalmog`iz kampir", "O`lmas Kashshey" singari obrazlar adabiyotda muhrlanib qolmagan bo`lar edi. Jamiyat ma'naviyatining poydevori sanalgan adabiyot turli xalqlar tilida turlicha ataladi. Chunonchi, "literatura", "slovesnost", "wortkunst" so`zlari yevropa xalqlari orasida keng qo`llaniladi. Hozirda she`riyat ma`nosida qo`llaniladigan "poetika", "poeziya" so`zlari ham avval "adabiyot" ma'nosida ishlatilgan. Aristotel(eramizdan oldingi 384-322-yillar) "Poetika" nomli asar yozib, adabiyot va uning xususiyatlari xususida mulohaza bildirgan. V.Beliniskiy (1811-1848) adabiy tur va janrlarni ta'riflab, tahlil qilganda "literatura" so`zi o`rnida ham "poeziya" so`zini qo`llagan. Biroq "adabiyot" istilohi muqobili sifatida qanday so`z qo`llanmasin, shunisi aniqki, bu so`z barcha zamonlarda hamma xalqlar hayotidaalohida o`rin tutgan.

O`zbek adabiyotida realistik hikoya janri XX asrnng birinchi yarmida shakllanib boshladi. Ungacha bo`lgan davrda hikoyalar folklor tarkibida mavjud edi. Shunday qilib, hikoya janrining dastlabki peshqadamlari sifatida Cho`lpon, A.Qodiriy, G`.G`ulom, Oydin kabilarni sanab o`tish mumkin. O`zbek adabiyotining oldida juda katta ma`suliyatli vazifa turar edi. Maqsad o`zbek xalqi ma`naviyati,qadriyatini o`ziga xos tarzda qalamga olish va xalq turmush tarzini badiiylashtirgan holatda jahon minbariga olib chiqish masalasi edi. Ba'zi o`rinlarda adabiyotimizdagi realistik hikoyalar o`rnini badiiylik bilan to`ldirilgan holda boyitish ham adabiyotimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi.

Eng avvalo qadriyatning nima ekanligiga to`xtaladigan bo`lsak: Qadriyat tushunchasi turli o`rinlarda turli xil ma`zmunda tushuniladigan teran tushuncha sanaladi. Qadriyatni o`rganuvchi fan "Oksiologiya" deb nomlanadi. Bu fan sifatida o`tgan asrning ikkinchi yarmida nemis OKSIOLOGI E.Gertman tomonidan fanga olib kirilgan. Oksiologiya girikchadan tarjima qilinganda *qadriyat, fan, ta`limot* ma`nolarini anglatadi.

Adabiyot yosh avlod qalbiga ezgulik urug'larini sochadi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, Said Ahmad singari adiblarning asarlarida

insoniylik, vijdon, mehr-shafqat, fidoyilik kabi g‘oyalar targ‘ib etilgan. Masalan, “O‘tkan kunlar” romanida milliy qadriyat va ma’naviyat uyg‘unligi o‘zining yorqin ifodasini topgan: Otabek obrazi or-nomus, sadoqat, xalqparvarlik timsoli sifatida tasvirlanadi.

O`zbek adabiyotida o`zbekona urf-odatlar, qadriyatlar bilan boyitilgan hikoyalar yetarlicha uchraydi. Jumladan “Uloqda” hikoyasi. Qadriyat tushunchasini iqtisod bilan bog`lashimiz to`g`ri hisoblanmaydi. Sababi u qiymat bilan bog`langan holatda umuman boshqa mazmunga ega bo`ladi. Ammo qadriyat alohida holda Ma`naviyatning mag`zini tashkil etadigan tushunchadir. Qadriyat ham darajalanishi yoki tasniflanishi mumkin. Biror mamlakatning qadriyatlari o`zga mamlakatlar uchun hech qanday ma`zmun kasb etmasligi, yoki aksincha bo`lishi ham mumkin. Bundan kelib chiqib aytadigan bo`lsak, milliy qadriyatlarimiz badiiy asarlar negizida boshqa mamlakatlar e`tiborini tortishi ham mumkin. Badiiy adabiyotda har bir millatning o`z urf-odatlarini yoki udumlarini ulug`lovchi hikoyalar ham uchraydi. Unda millatni millatligini, sof qadriyatlarini, odatlarini yoki tarixini ochib beradigan detallar aniq va lo`nda tarzda ifodalaniladi. “Uloqda” hikoyasi haqida gapiradigan bo`lsak: Hikoya o`z zamonida oddiy xalqning turmushi, urf-odatlari va bir-biriga bo`lgan munosabatini ochib beradigan darajadagi hikoya hisoblangan. Ammo zamonlar osha bu hikoya o`zbek hikoyachiligining ilk qadamlari sifatida e’tirof etildi. Hikoya 1916-yilda yaratilgan bo`lib, unda o`zbek milliy o`yinlaridan bo`lgan uloq chopish o`yini va uning voqealarini yosh bola tilidan hikoya qilib berilgan. Bu o`zbek adabiyotining eng dastlabki hikoyalaridan hisoblanib, shundan keyin o`zbek adabiyotida hikoya janri rivojlana borgan. O`zbek hikoyachiligida badiiylikning ahamiyati muhim sanaladi. Shu davrda yaratilgan ko`plab realistik hikoyalar o`zbek adabiyotining tarix zarvaroqlaridan joy olgani ham bejiz emas. Zamonlar osha bunday hikoyalarning o`qilishi, shuningdek o`z ahamiyatini yo`qotmay kelayotgani ham ijodkorga yuqori baho bera oladi desak mubolag`a bo`lmaydi. Hikoya uloq xalq o`yini haqida gap ketadi. Otga bo`lgan mehr va e`tibor ham shu o`rinda qahramonlar tilidan bayon qilinadi. Bu hikoyani ijodkor badiiylashtirib o`quvchiga juda chiroyli holatda yetkazib beradi-ki, beixtiyor o`sha jarayonni ko`z o`ngimizga keltiramiz. Hikoya fojiali yakun topadi deyish mumkin. Bu o`rinda ijodkor betaraf holatda o`z ishini bajaradi. Asli xalq o`yinlari, urf-odatimiz bo`lsada ba`zan fojiali yakun topishi ham mumkinligiga to`xtaladi.Ammo qanday holatda bo`lmasin, “Uloqda” o`zbek hikoyachiligining ilk namunalaridan biri sifatida adabiyotimizda o`z ahamiyatini yo`qotmaydi.

O`zbek adabiyotida shunday hikoyalar borki, sof samimiy ,bag`rikeng insonlarimizni borligini ko`rsatib beradi. Shunday hikoyalarni o`qiganimizda ko`nglimiz zavqqa to`lib, allanechuk tuyg`ularni his qilamiz. Garchi qahramonning ishi gunoh, yoki jinoyat hisoblansa-da unga nisbatan mehrimiz oshadi. Shunday hikoyalardan biri bu G`afur Gulomning “Mening o`g`rigina bolam” hikoyasidir.

Hikoyaning boshlanishi ham qayg`uli, mahzun, inson ruhiyatiga og`irlik beradigan darajada og`riqli, ammo o`qiganimizda beixtiyor yuzimizga kulgu yuguradi. O`g`rini yoqtirib, uni ko`rgimiz keladi. Yosh bolanichi ?

…Buni qarang-a, bizning uyga o`g`ri kepti. Bizni ham odam deb yo`qlaydigan kishilar bor ekan-da, dunyoda? Ertaga o`rtoqlarimga toza maqtanadigan bo`ldim-da: "Bizning uyga o`g`ri keldi" G`urur bilan aytsa bo`ladi. Lekin ishonisharmikan?[1] Ko`rinib turibdiki bolalarning holidanshugina qari bemajol kampirdan boshqa hech kim xabar olmaydi. Go`yoki ular jamiyatda yo`q, kimsasiz va keraksiz insonlar. Hatto bolaning uyiga o`g`ri bo`lsada yo`qlab kelishi quvonch baxsh etayotgani ham ajabnalarli. O`g`rini-chi? Soddalarcha o`z kasbini sirlarini ochishi, kimning uyiga o`g`irlikga tushgani-yu, nimalar o`margani, asli ota kasbi kimligini bayon qilishi juda qiziqarli jarayon. Agarda kampir og`ri tilidan eshitgan gaplarni tegishli insonlarga aytsa, o`g`rini topish bir necha soatlarga borib taqalar edi xolos. Kampir ham kamsuqum oddiy o`zbek onasi. Uning uchun o`g`rimi, to`g`rimi birdek joni achiydi rahmi keladi. Badiiylik bilan sug`orilgan, o`zbekona hikoya zamirida xalq o`tmishi,xalq urf-odati, xalq qadriyati yotishi shubhasiz.

O`zbek adabiyotida vatan madhini kuylovchi hikoyalar ko`pligi bilan bir qatorda, vatanga intilgan va vatandan ayro insonlar ham borligini ifodalovchi hikoyalar uchraydi. Inson borki o`zi tug`ilib o`sgan vataniga intilib yashaydi. Bu vatanga bo`lgan sevgi hisoblanadi.

Vatanni sevmoqlik yurt otasiga.
Sadoqatni yaponlardan o`rganish kerak.

Endi biz, istiqlol yillarida xalqlar va millatlar o`rtasidagi birlik, do`stona aloqalar bobida bosib o`tgan yo`limizga bir nazar tashlab, ozgina sarhisob qilib ko`rsak, mazkur sohada erishgan va erisha olmagan natijalar ravshanroq ko`rinsa kerak. Biz yuqorida xalqlar va millatlarni birlashtiradigan, ularni do`stlik va totuvlikga da'vat etadigan eng ulug` vosita - ma`naviyat dedik. Ma`naviyat o`z ichiga barcha ilm, ma`rifat, shu bilan birga san`atning hamma turlarini , adabiyot, falsafa, tarix durdonalarini oladi. San`atning musiqa, ashula, badiiy adabiyot turlari millat va xalqni tanlamaydi. Chegara bilmaydi, barcha tabaqa vakillari ma`naviyatiga ijobiy ta`sir ko`rsataveradi. Zero, Alisher Navoiy, Shekspir, Lev Tolstoy yoki Abdulla Qodiriy, Behbudiy, Fitrat ma`naviy xazinalari allaqachon milliy qobiliyatlardan toshib chiqib, butun jahon madaniyati, ma`naviyatiga aylanib ketgani uchun ham asrlar osha sof vijdonli jamoatchilikni maftun qilib kelmoqda.

Yuqorida bir nechta hikoyalar badiiy, ma`naviy, qadriyat jihatidan tahlil qilib o`tildi. Har bir xalqning o`z turmush tarzi, urf-odatlari negizida *tolerantlik* tushunchasi yotadi. O`zi tolerantlik nima, u qanday tushuncha? Tolerantlik (lot. tolerantia — sabr-

[1] Qarang, "Mening o`g`rigina bolam". "Yangi asr avlodi". T - 2019

toqat), bag‘rikenglik — o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘lish. Ya’ni, boshqa muhit vakillarining odat-e’tiqodlarini hurmat qilish demakdir.

Tolerantlik haqida qadimdan ham, buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali ham, yoki dinimizda, hadis-u sharifda ham ma`lumotlar berilgan, fikrlar bayon qilib o`tilgan. Ular o`z asarlarida “Tolerantlik” ga urg`u berishadi. Bunga sabab sifatida, o`sha davrdagi allomalarimizga, mutafakkirlarimizga nisbatan tazyiq va ko`rsatilgan ozorlar sabab desak mubolag`a bo`lmas. Tolerantlik haqida Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asarida ancha kengroq va mushohadali fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, Jaloliddin Rumiy ham, “Tolerantlik” haqida o`z ijodida alohida to`xtaladi. Biz o`tmish sarhadiga e`tibor berganimizda, “Tolerantlik” tuyg`ulari haqida qarashlar va fikrlar guvohi bo`lamiz. Ammo shu o`rinda zamonaviy adabiyotimiz ham “Tolerantlik” ulug`lanadigan hikoyalarimizni nazardan chetga qoldirmasligimiz kerak. XX asr o`zbek adabiyoti hikoyachiligida tolerantlik tushunchalari anchayin ko`zga tashlanadi. Bunday hikoyalar orqali biz o`zbek adabiyoti negizida hamisha yaxshilikni va millatlararo bag`rikenglikni ulug`lovchi g`oyalar va fikrlar mujassamligini ko`rishimiz mumkin. Hikoyalar o`zbek xalqini urf-odat va turmush tarzini ochib berish bilan birga, uning atrofdagilar uchun, boshqa millat va elatlar, o`zga din vakillari uchun ham qarashlari yaqqol ko`zga tashlanadi. O`zbek xalqi azaldan mehmondo`st va bag`ri keng millat sifatida jahon xalqlari e`tiboriga tushgan. Har bir harakatida, udumlarida buni yaqqol sezish mumkin. Ikkinchi jahon urushi yillarida esa o`zbek xalqi chinakam ma`noda qahramon xalq maqomiga erishdi. O`zi yemay, o`zi kiymay urush uchun, front uchun oxirgi luqmasini bergan ham o`zbek, begona millat farzandlarini o`z qarmog`iga olgan ham o`zbek, o`zi jangda yaralanib, safdoshlarini yelkalab jang maydonlaridan olib chiqqan ham o`zbek. Bu xalq haqida, bag`ri keng millat haqida qanchadan qancha iliq gaplar gapirish mumkin. Chin ma`noda shunday yurt farzandi ekanligidan faxrlanib yashamoq joizdir.

O`zbek adabiyoti hikoyalarida o`zbekona urf-odatlarni, qadriyatlarni va o`z ma`naviyatimizni ulug`lovchi hikoyalarimiz nihoyatda ko`p. Ayni damda sanoqli hikoyalar, imkon qadar mustaqil fikrlar va ilmiy qarashlar orqali tahlil qilishga erishildi. Ushbu maqolada XX asr O`zbek adabiyoti hikoyachiligida yaratilgan hikoyalr salmog`i, saviyasi, ma`no va mazmun uyg`unligi orqali o`zligimizni dunyoga ijobiy qarashlar orqali namoyon qila olgan bo`lsak, milliy adabiyotimiz ravnaqiga hissa qo`shgan bo`lamiz.

Ma’naviy tarbiya va milliy qadriyatlarning uyg‘unligi o‘qituvchining, ayniqsa adabiyot muallimining faoliyatida ham katta o‘rin tutadi. U badiiy asarlar orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat bilan qarash fazilatlarini tarbiyalaydi. O‘zbek adabiyoti milliy qadriyatlar va ma’naviy tarbiyaning uzviy birligiga asoslangan. Har bir davr adiblari o‘z asarlari orqali insonni ma’naviy

barkamollikka, komil shaxs bo‘lishga undab kelganlar. Bugungi kunda adabiyot darslari orqali yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash — ma’naviy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Adabiyot inson qalbining oynasi, millatning ruhi va tarbiyaviy maktabidir. Shuning uchun har bir asar, har bir obraz orqali milliy qadriyatlar avloddan avlodga o‘tib, ma’naviy meros sifatida saqlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyotshunoslik nazariyasi” A.Ulug`ov. “G`afur G`ulom nomidagi NMIU” Toshkent - 2018
2. “Badiiy -estetik so`z sehri” Islomjon Yoqubov. Toshkent – 2011-yil.
3. “Adabiyotshunoslik lug`ati”, D.Quronov Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. “Akademnashr”. T - 2010
4. Umida Marasulova.“Methodology of organizing self-learting in training specialists”, “Eastern European Scientific Journal, 2021”.
5. “XX asr o`zbek hikoyalari antologiyasi” . “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” T – 2016
6. Cho‘lpon. Asarlar. Uch jildlik. II jild. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993“
7. Umida Marasulova. Umumta’lim maktablari o‘quvchilarida adabiy-nazariy tushunchalarni shakllantirish va takomillashtirish usullari. Monografiya. – Toshkent. Navro‘z nashriyoti. DUK. 2021 yil.
8. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1980.
9. Mening o`g`rigina bolam”. “Yangi asr avlodi”. T - 2019
10. Hakim Nazir. “Tanlangan asarlar” 5 tomlik. (1977—1981)
11. Said Ahmad “Tanlangan asarlar” T - 2000
12. Imomkarimova M. O‘tkir Hoshimov asarlarida milliy qadriyatlar talqini.
13. Ahmad Aliyev “Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat”. “Akademiya” nashriyoti, T - 2000
14. www.ziyouz.com, https:/arxiv.uz internet saytlari